

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QISHGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Salayeva Charosxon Mahmud qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishning samarali usullari tahlil qilinadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari, motivatsiyani rag'batlantiruvchi didaktik yondashuvlar hamda o'qituvchining pedagogik mahorati o'quv jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot davomida interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, rag'bat tizimi va individual yondashuvning o'qish jarayonidagi ahamiyati o'rganilgan. Maqola boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'qishga qiziqish, motivatsiya, interfaol metodlar, individual yondashuv, o'yin texnologiyalari, didaktika.

Abstract: This article analyzes effective methods for developing interest in learning among primary school students. It scientifically examines how the psychological characteristics of young learners, motivational didactic approaches, and the teacher's pedagogical skills influence the learning process. The study explores the importance of interactive methods, game-based technologies, reward systems, and individualized instruction in increasing students' learning motivation. The article also provides practical recommendations that can be applied to improve the effectiveness of primary education.

Keywords: primary education, interest in learning, motivation, interactive methods, individualized approach, game-based technologies, didactics.

Аннотация: В данной статье анализируются эффективные методы формирования интереса к учёбе у учащихся начальных классов. На научной основе раскрывается влияние психологических особенностей младших школьников, дидактических подходов, стимулирующих мотивацию, а также педагогического мастерства учителя на учебный процесс. В ходе исследования изучены значение интерактивных методов, игровых технологий, системы поощрения и индивидуального подхода в повышении учебной активности детей. В статье также представлены практические рекомендации, направленные на повышение эффективности начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, интерес к учёбе, мотивация, интерактивные методы, индивидуальный подход, игровые технологии, дидактика.

Boshlang'ich ta'lim – uzluksiz ta'lim tizimining poydevori bo'lib, o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan dastlabki munosabat aynan shu davrda shakllanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishga qiziqish tabiiy bo'lib, uni to'g'ri boshqarish va rivojlantirish pedagogning asosiy vazifasidir. O'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan usullar nafaqat o'zlashtirish darajasiga, balki o'quvchining keyingi ta'lim bosqichlariga bo'lgan munosabatiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qishga qiziqishni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy tadqiqotlar bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. O'qishga qiziqish — bu o'quvchining ta'lim jarayonidagi faolligi, o'rganishdan zavq olishi va ichki motivatsiyaga asoslangan o'qish ehtiyoji hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda diqqatning barqaror emasligi, emotsional sezgirlik va o'yin faoliyatiga yuqori qiziqish mavjud. Shu bois ta'lim jarayoni ularning tabiiy ehtiyojlari va psixologik xususiyatlariga mos shakllantirilishi lozim.

Interfaol metodlar o'quvchini jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi. “Aqliy hujum”, “Baliq suyagi”, “Insert”, “Sinkveyn” kabi metodlar o'quvchilarni fikrlashga, mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatadi. Bunday yondashuvlar darsni qiziqarli, mazmunli va samarali qiladi. O'quvchi o'z fikrini bildirish imkoniga ega bo'ladi va o'qish jarayoniga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. O'yin — boshlang'ich sinf o'quvchisining yetakchi faoliyati. Ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini kiritish o'quvchini ruhlantiradi, uning diqqatini faollashtiradi va mavzuni oson o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan: rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar, raqobatga asoslangan musobaqa o'yinlar, interaktiv multimediali o'yinlar. Shuningdek, o'yin orqali o'quvchi o'zlashtirish jarayonini qiziqarli jarayon sifatida qabul qiladi. Rag'ba boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun kuchli motivatsiya manbai hisoblanadi. Maqto'v, kichik sovg'alar, motivatsion stikerlar, “eng faol o'quvchi” kabi baholash tizimlari o'quvchida o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Rag'bat o'z vaqtida, aniq faoliyat natijasiga bog'lab berilishi lozim. Bu o'quvchida mas'uliyat va intilish hissini uyg'otadi. Har bir o'quvchining qiziqishlari, imkoniyatlari va o'zlashtirish sur'ati farq qiladi. O'qituvchining individual yondashuvi o'quvchini qo'llab-quvvatlashga, uning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunga quyidagilar kiradi: differensial topshiriqlar berish; iqtidorli o'quvchilar bilan alohida ishlash; sust o'zlashtiruvchilarga qo'shimcha ko'rsatmalar berish; shaxsiy rag'bat tizimini shakllantirish.

Zamonaviy ta'lim jarayonida multimediali materiallar, ta'limiy platformalar va interaktiv o'quv dasturlari o'qishga qiziqishni sezilarli darajada oshiradi. Videodarslar, animatsiyalar, elektron testlar va virtual o'yinlar o'quvchini jarayonga faol jalb qiladi. O'yin dastavval - faoliyat mahsuli, uning vosistasida odam voqelikni qayta quradi, dunyoni o'zgartiradi. Bolaning dunyoga ta'sir ko'rsatishga bo'lgan ehtiyojining namoyon bo'lishi ilk bor o'yinda shakllanadi. O'yinning mohiyati shundan iboratki, unda natija emas, balki jarayonning o'zi muhimdir. Bola o'yinaydigan vaziyatlar tasavvur etilgan

bo'lsa ham ular boshidan kechiradigan tuyg'ular realdir. O'yinning bu o'ziga xos xususiyati o'zida katta tarbiyaviy imkoniyatlarini mujassamlashtirgan, chunki o'yin mazmunini boshqarib, o'yin syujetiga muayyan rollarni kiritib, pedagog shu tariqa o'ynayotgan bolalarning muayyan ijobiy tuyg'ularini programmalashtirishi mumkin. Birinchidan, odam uchun ijobiy tuyg'ularni boshidan kechirish tajribasining o'zi muhimdir, ikkinchidan, kechinmalar orqaligina faoliyat ijobiy munosabatni tarbiyalashi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bolalarning o'yini natijasida ular faoliyatining shunday mahsulotlari qoladiki, ularning mazmuni eng ko'p tarzda o'qish ehtiyoji bilan bog'liqlikdan yaqqol dalolat beradi. Kam o'ynaydigan bolar, ko'p o'ynaydigan tengdoshlaridan rivojlanishda orqada qoladi, chunki L. S. Vigotskiyning ifodasi bo'yicha o'yinda "bola o'zining o'rta yoshidan kattaroq, o'zining odatdagi xulq-atvoridan yuqoriroqdadir; u o'yinda o'zidan bir bosh yuqoriroqdir. Bola o'yinda o'zining odatdagi xulq-atvor darajasidan yuqoriroqqa sakrashga uringandek bo'ladi. Amalda bola o'yin faoliyati orqali harakat qiladi" Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qishga qiziqishni shakllantirish usullari orasida darsni qiziqarli o'tish va turli o'qish texnikalarini qo'llash usullari mavjud. Bu usullarni qo'llash orqali bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishi ortadi. Bolalarning yoshi va qiziqishlariga mos, mazmunli va tushunarli matnlar tanlash o'qishga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Darsni o'yin shaklida tashkil qilish (masalan, savol-javob o'yinlari, rolli o'yinlar) o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi. O'qishni turli usullar bilan olib borish lozim. Ya'ni kechagi dars va bugungi dars o'rtasida farq bo'lishi kerak. Agarda darslar har kuni bir xil bo'laversa, bu jarayon bolada o'qishga bo'lgan qiziqishning susayishiga olib keladi. Jumladan, darslikda berilgan matnlarni kichik rollarga ajratib o'qitish o'quvchilarning ham o'qish savodxonligini oshirishga, ham o'sha matnning xotirada yaxshi muhrlanishiga sabab bo'lishi mumkin. S.L.Rubinshteyning ta'kidlashicha, bola u yoki bu rolni o'ynar ekan, u shunchaki soxtalik bilan begona shaxsga ko'chmaydi; rolga kirar ekan, u o'z shaxsini kengaytiradi, boyitadi, chuqurlashtiradi. Har doim bolalarning o'yinidagi markaziy jihat ular uchun eng muhim bo'lgan narsa, ya'ni boladagi mavjud ehtiyojlarga javob beradigan mazmun bo'lib chiqadi. Shu sababli bir xil mazmun turli yoshdagi bolalarga turli mohiyat kasb etadi. O'qituvchi matnni o'zi hikoya qilib berishi, keyin o'quvchilarni ham hikoya qilishga undashi ham samarali usullardan biri hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o'yinlarda, rasm chizish, loy hamda plastilindan o'yinchoqlar tayyorlashda, o'zgarar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko'rinadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi o'z diqqatini muayyan ob'ektga yo'naltirish, to'plash, taqsimlash bo'yicha ma'lum darajada ko'nikmaga ega bo'lib, o'z diqqatini boshqarish va kerakli

paytda to'plashga intiladi. Mazkur yoshdagi bolalar xotirasi qiziqarli, ajoyib-g'aroyib, kishini taajjubga soladigan ma'lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish-irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. O'quvchining ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganini bildiradi. U she'r, hikoya va ertaklarni esda qoldirish uchun takrorlashi, yod olishning eng qulay yo'l va usullaridan foydalanishi ta'lim jarayonida unga juda qo'l keladi. Birinchi sinf o'quvchisi ko'pincha yaqqol obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham, bu xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi, aksincha, ta'lim so'z-mantiq xotirasini taqozo etadi. So'z-mantiq xotirasining mavjudligi ma'nosini tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashim kerakki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qishga qiziqishni shakllantirish — murakkab, ammo samarali tashkil etilganda yuqori natija beradigan jarayondir. Interfaol metodlardan foydalanish, o'yin texnologiyalarini qo'llash, rag'batlantirish tizimini to'g'ri tashkil qilish va individual yondashuv o'quvchilar motivatsiyasini mustahkamlaydi. O'qituvchining pedagogik mahorati, darslarni mazmunan boy va qiziqarli tashkil etishi boshlang'ich ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zunnunov A., To'xtasinov B. Pedagogika. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.
2. Qodirov B., Yo'ldosheva Sh. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2018.
3. G'ulomov S., Qodirova F. Didaktika asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Vigotskiy L. S. Voobrazheniye i tvorchestvo v detskom vozraste. – Moskva: Pedagogika, 1997.
5. Vigotskiy L. S. Myshleniye i rech. – Moskva: Labirint, 2005.
6. Rubinshteyn S. L. Osnovy obshchey psixologii. – Moskva: Pedagogika, 1989.
7. Leontev A. N. Deyatelnost. Soznaniye. Lichnost. – Moskva: Smysl, 2004.
8. Bo'ronov B. Boshlang'ich ta'limda o'yin texnologiyalari. – Toshkent: Ilm Ziyoy, 2021.
9. Sayidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'zbekiston Milliy nashriyoti, 2017.
10. Mavlonova R., Rahmonqulova M. Boshlang'ich ta'limga kirish. – Toshkent: TDPU, 2016.
11. Shodmonov Q., Hasanov A. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.